

# "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2026-yil 03-iyun kuni o'tkaziladi

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/calendar/uzkimyosanoat-akciyadorlik-zhamiyati-akciyadorlarining-yilli>

## **"O'ZKIMYOSANOAT" AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!**

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi 2026-yil 3-iyun kuni soat 15:00 da Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy ("O'zkimyosanoat" AJ ma'muriy binosi)da o'tkaziladi. Umumiy yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish 2026-yil 3-iyun kuni soat 14:00 da boshlanib, soat 15:00 gacha davom etadi.

### **KUN TARTIBI:**

1. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining 2025-yil yakunlari bo'yicha biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishi, shuningdek, jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlarini ko'rib chiqish.
4. "O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashining 2025-yil yakunlari bo'yicha hisobotini ko'rib chiqish.
5. "O'zkimyosanoat" AJning 2025-yil moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan auditorlik xulosasini ko'rib chiqish.
6. "O'zkimyosanoat" AJning 2025-yil uchun yillik hisobotini ko'rib chiqish.
7. "O'zkimyosanoat" AJning 2025-yil yakuni bo'yicha olingan sof foydasini taqsimlash, dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibini belgilash.
8. "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi a'zolari bilan tuzilgan mehnat shartnomalarining amal qilish muddatini uzaytirish.
8. "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi a'zolari bilan tuzilgan mehnat shartnomalarining amal qilish muddatini uzaytirish.
9. "O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi a'zosi E. Mavlyudovning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish.
10. "O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi a'zosini saylash.

Umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun aksiyadorlar reyestri 2026-yil 12-may holatiga hamda umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega aksiyadorlar reyestri 2026-yil 28-may holatiga shakllantiriladi.

Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun aksiyadorlar o'zi bilan pasport, aksiyadorlar vakillari esa - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan qatnashishlari so'raladi.

Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan tanishish uchun quyidagi manzil va telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 38-uy, telefon: +(99878) 140-74-97, 140-74-98. E-mail: [info@uks.uz](mailto:info@uks.uz)

**"O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi**

